

## ONKOLOGIK KASALLIKLARNI ANIQLASH UCHUN ONLAYN SKRINING TESTLARINI O'TKAZISH

**Masaidova Robiyabonu Oybek qizi**

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali 4-kurs talabasi

[robiabonum@gmail.com](mailto:robiabonum@gmail.com)

**Djumaniyozova Zulxumor Farxadovna**

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Ichki kasalliklar va dermatovenerologiya

kafedrası t.f.n dotsent, kafedra mudiri

**Annotatsiya:** Ko'krak bezi saratoni ayollar orasida eng keng tarqalgan va muhim onkologik kasalliklardan biridir. O'zbekistonda Respublika onkologiya dispanseri ma'lumotlariga ko'ra, har yili 4000 dan ortiq yangi ko'krak bezi saratoni holatlari aniqlanadi. Mazkur onkologik kasallik bilan kurashish muammosi yangi diagnostika, profilaktika va davolash usullarini ishlab chiqish, aholining xabardorligini oshirish hamda tibbiy yordam sifatini yaxshilashni talab qiladi. **Kalit so'zlar:** Ko'krak bezi saratoni, onkologik kasallik, profilaktika, diagnostika, skrining testlar, ekzogen omillar.

**Аннотация:** Рак молочной железы является одним из самых распространенных и важных онкологических заболеваний среди женщин. Согласно данным Республиканского онкологического диспансера Узбекистана, ежегодно выявляется более 4000 новых случаев рака молочной железы. Борьба с данным онкологическим заболеванием требует разработки новых методов диагностики, профилактики и лечения, повышения осведомленности населения и улучшения качества медицинской помощи.

**Ключевые слова:** Рак молочной железы, онкологическое заболевание, профилактика, диагностика, скрининговые тесты, экзогенные факторы.

**Abstract:** Breast cancer is one of the most common and significant oncological diseases among women. According to the data from the Republican Oncology Dispensary of Uzbekistan, more than 4000 new cases of breast cancer are detected annually. Addressing this oncological issue requires the development of new

methods of diagnosis, prevention, and treatment, as well as increasing public awareness and improving the quality of medical care.

**Keywords:**Breast cancer, oncological disease, prevention, diagnosis, screening tests, exogenous factors.

**Tadqiqot maqsadi.** Tibbiyot talabalari orasida onkologik profilaktika anketalari haqida xabardorlik darajasini aniqlash hamda ekzogen omillarning taʼsirini oʻrganish.

**Tadqiqot materiallari va usullari.** Tibbiyot talabalari orasida profilaktika bo'yicha bilim darajasini oʻrganish maqsadida, biz 20 ta savoldan iborat maxsus soʻrov anketasini ishlab chiqdik. Anketa koʻkrak bezi saratoni rivojlanish xavf omillari va talabalarining profilaktika tadbirlarini oʻtkazishga tayyorgarligi bilan bogʻliq savollarni oʻz ichiga oladi. Tadqiqot davomida biz tarixiy, sotsiologik, anketaviy soʻrov va taqqoslash usullaridan foydalandik.

**Tadqiqot natijalari.** 2022 yilda biz tibbiyot talabalari orasida koʻkrak bezi saratoni haqida xabardorlik darajasini baholashga qaratilgan maxsus profilaktik anketa ishlab chiqdik. Ushbu soʻrovda Oʻzbekiston va boshqa davlatlarning tibbiyot oliy oʻquv yurtlari talabalari ishtirok etdilar. Anketaning muhim savollaridan biri talabalar onkologik kasalliklarni dastlabki aniqlash uchun mavjud testlar va anketalar haqida maʼlumotga egami yoki yoʻqligini aniqlashga qaratilgan edi. Tadqiqot natijalariga koʻra,  $58,8 \pm 9,3\%$  talabalar bunday profilaktik anketalar haqida hech qanday maʼlumotga ega emasligi aniqlandi. Faqatgina kichik bir qism talabalargina koʻkrak bezi saratonini erta aniqlash boʻyicha testlar haqida xabardorligi aniqlandi. Ushbu natijalardan kelib chiqib, talabalar orasida skrining testlari haqida yetarli maʼlumot berilmaganligi xulosasiga kelish mumkin. Ushbu masala tibbiyot talabalari taʼlim jarayonida erta diagnostika usullari boʻyicha bilimlarni kengaytirish zarurligini koʻrsatadi. Agar talabalar saraton kasalligini erta aniqlash usullari haqida maʼlumotga ega boʻlmasa, ular bu muammoning ahamiyatini yetarlicha tushunmasligi va bemorlarni zarur testlardan oʻtkazishga yoʻnaltirmasligi mumkin, bu esa kech diagnostika xavfini oshiradi.

Shuningdek, bu kamchilik talabalar ishtirokida olib boriladigan profilaktik dasturlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi, ilmiy tadqiqotlarda ishtirok etish imkoniyatlarini cheklashi va ularning professional rivojlanishiga to'sqinlik qilishi mumkin.

**Xulosa.** Tibbiyot talabalari orasida ko'krak bezi saratonining profilaktikasi va erta diagnostikasi bo'yicha bilim darajasi yetarli emas. Kelajakdagi shifokorlarning xabardorligini oshirish uchun qo'shimcha o'quv dasturlari va ma'ruzalar tashkil etish zarur. Bu nafaqat ularning bilimlarini oshirishga yordam beradi, balki aholiga profilaktika va erta tashxis qo'yishning ahamiyati haqida kengroq ma'lumot berish imkonini yaratadi, natijada esa kasallanish va o'lim holatlari kamayishiga xizmat qiladi. Shuningdek, aholining ekzogen omillar ta'siridan himoya qilinishini ta'minlash uchun keng ko'lamli profilaktik tadbirlarni amalga oshirish, poliklinika shifokorlari va tibbiyot oliy o'quv yurtlari o'qituvchilari bilan hamkorlikda ma'rifiy tadbirlar o'tkazish zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Nurmatov, A. (2020). Onkologik kasalliklar va ularning profilaktikasi. Toshkent: O'zbekiston tibbiyot nashriyoti.
2. Mavlonov, A. (2019). Ko'krak bezi saratoni diagnostikasi va davolashning yangi usullari. Tibbiyot ilmiy jurnali, 15(3), 45-52.
3. Xolmatova, G., & Iskandarov, R. (2021). Ekzogen omillar va ularning saraton rivojlanishidagi roli. Jurnal of Cancer Research, 23(7), 74-82.
4. Tashkent Oncology Dispensary (2022). Ko'krak bezi saratoni statistikasi va profilaktika strategiyalari. O'zbekiston onkologik muammolari, 1(1), 34-40.
5. Kadirov, Sh. (2022). Erta diagnostika va profilaktikaning tibbiyot talabalari orasidagi o'rni. Oliy ta'lim jurnalida maqola, 12(4), 60-65.